

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA O‘QUV FAOLIYATI MOTIVATSIYASINI OSHIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Mahmanova Muhayyo Abdurasul qizi

Nurobod tuman 61-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yosh davrining o‘ziga xos xususiyatlari, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda o‘quv faoliyati motivatsiyasini oshirishning samarali yo‘llari to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan.

Аннотация. В данной статье освещена информация об особенностях периода младшего школьного возраста, эффективных путях повышения мотивации учебной деятельности у учащихся младшего школьного возраста.

Abstract. This article highlights information about the peculiarities of the period of primary school age, effective ways to increase the motivation of educational activities among primary school age students.

Maktab ostonasiga qadam qo‘yish bola hayotida yangi yosh davriga asos bo‘ladi. Bu yosh davri 6-7 yoshdan boshlab to 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrlar oralig‘ida bolaning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idroki o‘tkirliги, ravshanliги, aniqligi, o‘zinig qiziquvchanliги, ishonuvchanliги, hayolining yorqinliги, xotirasining kuchliligi, tafakkurning yaqqolligi bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, ayniqsa 1-2-sinflarda hali nutqni yaxshi egallamagan bo‘ladilar, shuning uchun ularga mavzuning umumiy ma`nosini o‘z so‘zlari bilan tushunarli qilib aytib berish kerak bo‘ladi. Bolalarni ko‘p yozish bilan ham charchatib qo‘yish kerak emas, chunki hali ular qo‘l barmoqlarini aniq harakat qildirishga qiynaladilar. Tovushlarni talaffuz qilishida ham ular bilan alohida shug‘ullanish, nutqida nuqsoni bor o‘quvchilar bilan alohida mashg‘ulotlar olib borishi lozim. Bolaning birinchi marta maktabga borishi,

yangi sinfxona, yangi o‘qituvchilar-u o‘quvchilar hamda yangi muhit. Bularning barchasi hayotga mustaqil qadam qo‘yishning ilk ko‘rinishidir. Bolada hali maktabga bormasdan oldin oila davrasida, bog‘chada maktab haqida havas kurtakalari gullay boshlaydi.

Birinchi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, «...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq». Darhaqiqat, har tomonlama barkamol, jismonan sog‘lom, ma`nan yetuk mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda boshlang‘ich sinflarda beriladigan ta`lim-tarbiyaning roli beqiyosdir. Chunki o‘quvchi kelajakda qaysi kasbni tanlashi, hayotda qanday inson bo‘lishiga oid bilim, ko‘nikma, malakalarga poydevor xuddi shu boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Bolaning bog‘cha bilan xayrlashib, maktab ostonasiga qadam qo‘yishi, maktabda bilim olishdan tashqari «maktab o‘quvchisi» degan maqomga sazovor bo‘lganligi ular uchun katta yangilikdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar maydoniga keladi, jamoaga qo‘shiladi, o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan talablarni bosqichma bosqich bajaradi, maktab ichki qonun-qoidalariga amal qiladi. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar uchun o‘qituvchisining gapi, har bir xatti-harakati, aytgan ma’lumotlari haqiqat mezoni vazifasini bajaradi. Aynan shuning uchun ham kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning muhim xususiyati- o‘qituvchisiga ishonch hamda yuksak ehtiromdir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga nisbatan qiziqishini amalga oshirishda ko‘proq o‘yin faoliyatidan foydalaniladi. O‘qish faoliyati uchun oson, samarali va tushunarli tashkil qilingan o‘yin orqali o‘quvchilarda bilim olishga, o‘qib o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj ortib boradi. Darsda ko‘proq o‘yin tashkil qilishning asosiy tamoyillari shundan iboratki, unda bolaning ijodiy havaskorligi, jamoaviy hamkorligi, muloqoti, tezkorligi faollashadi. Lekin bu o‘yin faoliyati bolalarni jismonan toliqtirib qo‘ymasligi lozim va albatta o‘yin so‘nggida ishtirok etgan, faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirilib borishi shart. «Barakalla», «Ofarin», «A`lo darajada bajarding» kabi so‘zlar bolaning ertangi darsga ham bo‘lgan

qiziqishi va ishtiyoqini oshiradi. Ma`lumki o`quvchilarning psixologik xususiyatlari har xil bo`lib, bir o`quvchiga ko`p muvaffaqiyat bilan qo`llangan tarbiyaviy ta`sir vositasi boshqa biriga qo`llanilganda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Tarbiyaviy tadbirlar o`quvchilarga yakkama yakka, individual yondashgan holda amalga oshirilsa yaxshiroq samaraga erishilishi shubhasizdir.

O`quvchilarda o`quv motivatsiyasini oshirishda ota-onalar, maktab pedagog-psixologlari ham tinimsiz harakatda bo`lishi, farzandlari bilan ko`proq vaqt o`tkazishi, samimiy, mehribon bo`lishi, qalban yaqin bo`lib ularning qiziqishlari, o`qishda bo`layotgan muammolari yechimini birga topishlari, qo`llab quvvatlashlari kerak. Ular eng avvalo o`quvchilarga kichkina bola emas, qadamma qadam o`sib borayotgan shaxs sifatida qarashlari, ularga har bir bajarmoqchi bo`lgan ishlarida motivatsiya berib ruhlantirib turishi zarur. Motivatsiya bu- biror narsaga intilish, maqsad sari harakatga undovchi, kuch bag`ishlovchi so`zlardir. O`quvchilar boshlang`ich sinflarda maqtov eshitishga, ko`proq a`lo baholar olishga qiziqishadi. Agar bola maktabga borishni, dars qilishni xohlamasa, qiziqmasa unga ota-ona, o`qituvchi tomonidan motivatsiya yetarli emas, rag`batlantirish kam. O`quvchilarning olgan baholariga kattalarning munosabati ham ularning o`qishiga muayyan darajada ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim jarayonida o`quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni tekshirib nazorat qilish o`quvchini o`qishga bo`lgan qiziqishini oshiradi va o`qish faoliyati motivlari kuchayadi. Jamiyatimizda qobiliyatsiz, iqtidorsiz bolaning o`zi yo`q. Faqatgina shu iqtidorlarini amalda ko`rsatishiga sharoit yaratib, ko`maklashib, to`g`ri yo`nalish berib tursak kifoya. Bu o`rinda o`quvchilarga «senga ishonaman», «sen buni uddalaysan», «harakat qil» kabi tirgak, kuch bag`ishlovchi so`zlar bo`lsa kifoya. Shular orqali bolada o`ziga ishonchini ortishi, muammolarni hal qilishi, faol harakati paydo bo`ladi. O`qishning birinchi kunlarida bolalar darsga juda ham qiziqadi. Qo`l ko`tarib savollarga birinchi javob berish, topshiriqni eng birinchi bo`lib bajarib ustozidan yaxshi baho olish, she`r aytish, rasm chizish, sinfdshlaridan ko`proq baho olish, o`quvchilar orasida maqtov eshitish kabilar bolalarga juda yoqadi. Lekin ko`p baho qo`yishning ham ba`zi kamchiliklari bor. Bu holatda bola faqat baho uchungina o`qib

qolishi va shu o‘rinda bilimning ijobiy ahamiyati pasayib qolishi mumkin. Shuning uchun o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirib turishning boshqa usullaridan ham foyalanib turiladi. Dars davomida bolalar bilan mavzuga oid treninglar, metodlar, o‘yinlar olib boriladi. Bularning barchasi o‘quvchilarni mavzuni yaxshi o‘zlashtirish, o‘tilgan darslarni takrorlab mustahkamlab turish, darsga qiziqtirish, zerikib qolishga yo‘l qo‘ymaslik, yaxshi kayfiyat uyg‘otish, oson va tushunarli qilib mavzuni o‘rgatishning, o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatining eng samarali usullari hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik maktab yosh davri shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarining kelajagidan umidvor bo‘lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi, sharoit yaratib berishi kerak. Niholni o‘tqazib unga chin ko‘ngildan yaxshi parvarish bersa, unib o‘shihga yaxshi muhit va unumdor yer bo‘lsa undan o‘zi kutgan hosilni olishi mumkin. Bola ham xuddi shunday. Unga yaxshi e‘tibor qaratilsa, mehr berilsa, tartib intizomli jamoada, tinch muhitda tarbiyalanib borsa biz kutgan har tomonlama yetuk avlod bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat -yengilmas kuch. «Ma`naviyat» 2008
2. Davletshin M.G., Do‘stmuhammedova Sh.A. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma 2009
3. Sherimbetova Z.Sh. Boshlang‘ich sinflarda o‘zlashtirmovchi o‘quvchilarning psixologik xususiyati. O‘zMU 2007